

INGLIZ TILI LEKSIKOLOGIYASI VA O'ZBEK TILI LEKSIKOLOGIYASINING QIYOSIY O'RGANILISHI

Qahramonova Zarina Ibragim qizi

Toshkent Davlat Shahrqshunoslik Universiteti Xorijiy til va
adabiyoti fakulteti (ingliz tili) 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur tezisda ingliz va o'zbek tillari leksikologiyasining nazariy asoslari, leksik birliklarning shakllanishi, semantik guruhlanishi, so'z yasash xususiyatlari hamda milliy-madaniy omillar ta'sirida yuzaga keladigan farqlar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot ikki til leksikasining tipologik o'xshashliklari va farqlarini, tarjima jarayonidagi muammolarni ham yoritadi.

Kalit so'zlar: leksikologiya, semantika, polisemiya, omonimiya, antonimiya, so'z yasash, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o'zbek tili.

Аннотация

В данной диссертации представлен сопоставительный анализ теоретических основ лексикологии английского и узбекского языков, особенностей формирования лексических единиц, семантической группировки, особенностей словообразования и различий, возникающих под влиянием национально-культурных факторов. В исследовании также рассматриваются типологические сходства и различия лексики двух языков, а также проблемы перевода.

Ключевые слова: лексикология, семантика, полисемия, омонимия, антонимия, словообразование, сопоставительный анализ, английский, узбекский языки.

Leksikologiya tilning so'z boyligini, so'zning shakl va ma'nosini, uning semantik va struktural xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi. Bugungi globallashuv sharoitida ingliz va o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish nafaqat lingvistik, balki tarjimashunoslik, lingvokulturologiya va amaliy til o'qitish jarayonlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har ikkala tilning tuzilishi, kelib chiqishi, so'z yasash modeli turlicha bo'lgani bois, ularning leksik tarkibini qiyoslab o'rganish til tizimidagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Ingliz tili analitik til bo'lib, grammatik munosabatlar asosan so'z tartibi va yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi. O'zbek tili esa agglutinatив til bo'lib, so'z shakllanishi affikslar yordamida

amalgama oshadi. Ushbu tipologik farqlar leksikologiyada ham sezilarli darajada namoyon bo'ladi.

Ingliz tilida leksik birliklarni o'rganishda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi.

o'zakning o'zgaruvchanligi;

flektiv tuzilma qoldiqlari;

fonetik o'zgarishlarga asoslangan so'z yasash. O'zbek tilida esa mazkur holatlar o'ziga xos farqlarga ega.

affiksatsiya asosiy yasash usuli;

so'z tartibi erkinroq;

grammatik kategoriyalar ko'proq affikslar bilan ifodalanadi.

Bu kabi holatlar har ikkala tilning o'ziga xos grammatik shakllarini belgilab beradi. Xususan, so'z ma'nolarining turlari va semantik jarayonlar har ikki tilda ya'ni polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi semantik hodisalarda yuzaga kelishi barchamizga ma'lum. Jumladan:

Polisemiya

Ingliz tilida polisemiya ko'proq metafora va metonimiya asosida shakllanadi. Masalan: head (bosh, rahbar, qism, yuqori qism).

O'zbek tilida polisemiya asosan majoziy ma'no va ko'chma ma'nolarga bog'liq. Masalan: quloq (tana a'zosi), (qozonning qulog'i).

Omonimiya

Ingliz tilida fonetik o'zgarishlar sabab omonimlar ko'p: right (o'ng, to'g'ri, huquq).

O'zbek tilida omonimlar asosan affikslar bir xil qolipda kelishi tufayli vujudga keladi: yuz (raqam), yuz (tana qismi), yuz (sirt).

Sinonimiya va antonimiya

Ingliz tilidagi sinonimlarning aksariyati lotin, fransuz yoki german manbali bo'lib, stilistik farqlanishi kuchli. O'zbek tilida esa sinonimlarning shakllanishi milliy leksika asosida yuz beradi: go'zal – chiroyli, katta – ulkan

Ta'kidlab o'tish joizki, har ikkala tilning o'ziga xos leksik qatlamga ega ekanligi tarjima jarayonidagi muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ikki til orasidagi semantik nomutanosibliklar tarjimada qiyinchilik tug'diradi. Jumladan,

bir so'zning ko'p ma'noliligi: set (ingliz tilida 40 dan ortiq ma'noga ega).

milliy-madaniy realiyalar: navro'z, osh, do'ppi kabi so'zlarning ingliz tilida to'liq ekvivalenti yo'q.

idiomatik birliklar: break the ice — muhitni yumshatmoq.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qiyosiy o'rganish ingliz va o'zbek tillarining leksik tizimi bir qator umumiy semantik jarayonlarga ega ekanini ko'rsatadi. Ammo ularning tipologik xususiyatlari, so'z yasash mexanizmi, milliy-madaniy leksik qatlamlari sezilarli farqlarga ega. Ushbu farqlarni chuqur tahlil qilish tarjimashunoslik, til o'qitish metodikasi va lingvokulturologiya uchun katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akhmanova O. S. Dictionary of Linguistic Terms. Moscow: URSS, 2010.
2. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press, 2019.
3. Jackson H., Amvela E. Words, Meaning and Vocabulary. London: Continuum, 2000.
4. Bozorov O'., Jo'rayev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 2015.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2012.
6. Qiyosiy tilshunoslik bo'yicha maqolalar to'plami. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Oxford English Dictionary. Oxford University Press, 2022.
8. Yuldashev A. Ingliz tili leksikologiyasi. Toshkent